Аннотация. В статье анализируются тенденции развития текстильной и швейной промышленности Узбекистана с точки зрения маркетинга, рассматриваются конкурентная среда на внутреннем и внешнем рынках, а также особенности потребительского спроса. В последние годы в стране реализуются системные реформы, направленные на расширение деятельности текстильных кластеров, повышение экспортного потенциала и продвижение продукции на международные рынки под брендом «Made in Uzbekistan». В исследовании изучаются факторы маркетинговой микросреды — ассортимент продукции, ценовая политика, каналы распределения и рекламные стратегии. Кроме того, оценивается влияние инструментов цифрового маркетинга (онлайн-торговые платформы, социальные сети, идентификация бренда) на развитие отрасли. На основе полученных результатов разработаны рекомендации для текстильных предприятий по углублённому изучению внутреннего рынка, созданию продукции, отвечающей потребностям потребителей, и диверсификации экспортных стратегий.

Ключевые слова: текстильная промышленность, рынок одежды, маркетинговый анализ, цифровой маркетинг, экспортная стратегия, потребительский спрос.

KIRISH

Jahonning yetakchi kiyim-kechak brendlari raqobatbardoshlikni saqlab qolish va barqaror o'sishni ta'minlash maqsadida ko'p qirrali marketing strategiyalarini qo'llamoqda. Ularning faoliyatida barqaror moda konsepsiyasini rivojlantirish, ekologik toza brendingni shakllantirish hamda kiyimlarni qayta ishlash jarayonlarini keng joriy etish ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, elektron tijorat va onlayn savdo platformalariga investitsiyalar hajmi ortib bormoqda, bu esa global moda bozorida yangi raqobat imkoniyatlarini yuzaga keltirmoqda.

Mijozlarni jalb etish va ularning sodiqligini oshirishda ijtimoiy tarmoqlar, raqamli reklama vositalari hamda shaxsiylashtirilgan marketing usullari keng qo'llanilmoqda. So'nggi yillarda esa neyromarketing yondashuvlari asosida mijoz ongiga bevosita ta'sir etuvchi reklama strategiyalari ishlab chiqilib, amaliyotda yuqori samaradorlikni ko'rsatmoqda.

Shuningdek, mahalliy brendlar ham o'z marketing strategiyalarini ijtimoiy tarmoqlar orqali muvaffaqiyatli amalga oshirib, iste'molchilarning kiyinish imijini shakllantirishda muhim yutuqlarga erishmoqda. Masalan, Avstraliyaning "Sussan" brendi o'z marketing strategiyasini yangilab, yosh iste'molchilarga yo'naltirilgan kampaniyalar orqali bozordagi mavqeiini mustahkamladi. H&M brendi esa London Fashion Week 2025 doirasida o'zining premium kolleksiyalarini namoyish etish orqali moda sanoatida o'z pozitsiyasini yanada mustahkamladi [1].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xorijlik marketolog olimlarning ko'plab ilmiy tadqiqotlarida brend konsepsiyasining shakllanish omillari, iste'molchilarning xulq-atvori va qaror qabul qilish jarayonlariga ta'siri, shuningdek, brendni xalqaro bozorda muvaffaqiyatli joylashtirish mexanizmlari keng tahlil qilingan. Ularning izlanishlarida brend boshqaruvi strategik marketingning ajralmas tarkibiy qismi sifatida qaralib, to'qimachilik va moda industriyasida barqaror raqobat ustunligini ta'minlash nuqtayi nazaridan brend kapitali, imij va identifikatsiya tushunchalarining ilmiy-uslubiy asoslari chuqur yoritib berilgan.

Mazkur yo'nalishda Keller K. L. [2], Kotler P., Mrad M., Park H., Lim R. E., Blasi S. [3], Brigato L., Sedita S. R., Mogaji E., Wei X., Jung S., Yin Z. va boshqa xorijiy tadqiqotchilarning ilmiy ishlari alohida ahamiyat kasb etadi. Ularning tadqiqotlari brend yaratish amaliyoti va metodologiyasini, savdo markalarini brendlash jarayonidagi yondashuvlarni, brend kapitalini shakllantirish hamda uni barqaror oshirish yo'llarini tahlil qiladi. Shuningdek, mijozlar ongida brend jozibadorligini kuchaytirish, iste'molchi sadoqatini oshirish va brend imijini barqarorlashtirishga qaratilgan nazariy hamda amaliy yondashuvlar ishlab chiqilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari olimlari orasida ham mazkur soha bo'yicha qimmatli ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, G. A. Bagiyev, V. M. Tarasevich, S. I. Antoshkin [4], N. A. Olmezova, Glupko-Fedoricheva S. S., Mirakyan A. G., Xvorostyanaya A. S., Kayumova R. F., Minyazeva A. A., Nevolyani Yu. M., Gordeeva V. V., Bobrova Ya. M. va Sarjinskaya M. A. singari olimlarning ishlari shular jumlasidandir. Ularning ilmiy izlanishlarida iste'mol tovarlari brendini shakllantirish, brendni xalqaro bozorlarda samarali ilgari surish, hamda mahalliy kiyim brendlarining global raqobatda ustunliklarini ta'minlash masalalari keng yoritilgan.

O'zbekistonlik iqtisodchi olimlar ham marketing va branding sohalarida muhim ilmiy yutuqlarga erishgan. Jumladan, A. S. Soliyev, N. Q. Yo'ldoshev, M. A. Ikramov, A. Sh. Bekmurodov, M. R. Boltabayev, A. A. Fattaxov, Sh. J. Ergashxodjayeva, M. S. Qosimova, A. N. Samadov, I. S. Xotamov, S. A. Eshmatov, Z. A. Xakimov, N. G. Zufarova, S. S. Odilova, va A. R. Oqboyevlarning ilmiy ishlari buning yaqqol dalilidir. Ularning tadqiqotlarida marketing va branding fanlarini rivojlantirish, brend yaratish nazariyalarining ilmiy-metodologik asoslarini shakllantirish, hamda O'zbekiston korxonalarida brendni innovatsion yondashuvlar asosida boshqarish masalalari chuqur o'rganilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda O'zbekiston to'qimachilik va kiyim sanoatining marketing nuqtayi nazaridan rivojlanish tendensiyalari, raqobat muhiti hamda iste'molchilarning talab xususiyatlarini tahlil qilishga qaratilgan tizimli yondashuv qo'llanildi. Ishda analitik va statistik tahlil, qiyosiy metod, hamda marketing mikromuhiti omillarini (mahsulot, narx, taqsimot va reklama) o'rganish usullari asos sifatida tanlandi.

Ma'lumot manbalari sifatida O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi hisobotlari, xalqaro ilmiy maqolalar (Keller, Kotler, Blasi, Brigato va boshqalar) hamda amaliy marketing kuzatuvlari asos qilib olindi.

Shuningdek, raqamli marketing vositalarining (ijtimoiy tarmoqlar, onlayn savdo platformalari, brend identifikatsiyasi) sanoat tarmoqlariga ta'sirini baholashda kontent tahlil va empirik kuzatuv usullari qo'llanildi.

Tadqiqot natijalari asosida mahalliy to'qimachilik korxonalarining ichki bozorni chuqur o'rganish, iste'molchi ehtiyojlariga mos mahsulot ishlab chiqish va eksport strategiyasini diversifikatsiyalash bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.


TAHLIL VA NATIJALAR

Iqtisodiy nuqtayi nazardan, yengil sanoat tarmog'ining mamlakat sanoat tizimidagi ulushi moda industriyasining rivojlanishi uchun zarur xomashyo bazasi va qayta ishlash quvvatlarini shakllantiruvchi asosiy omil hisoblanadi. Mazkur tarmoqning ishlab chiqarish salohiyati mamlakatning eksport imkoniyatlarini kengaytirish bilan bir qatorda, ichki bozorni sifatli va raqobatbardosh mahsulotlar bilan ta'minlashga xizmat qilmoqda.



Hozirda to'qimachilik va kiyim-kechak ishlab chiqarish yo'nalishida faoliyat yuritayotgan 49 ta yirik korxonada nafaqat ichki bozor uchun kiyim-kechak, trikotaj va gazlama mahsulotlarini ishlab chiqarmoqda, balki eksportbop tayyor tovarlar yaratish orqali qo'shilgan qiymat zanjirini kuchaytirish va iqtisodiy samaradorlikni oshirishga munosib hissa qo'shmoqda.

Bu jarayonning samarali kechishi, avvalo, ishlab chiqarish tarkibini modernizatsiya qilish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish, va ishlab chiqarish jarayonlarini raqamlashtirish bilan chambarchas bog'liqdir. Mazkur yondashuv mahalliy moda brendlari uchun xalqaro bozorlarda raqobatbardoshlik imkoniyatlarini kengaytiradi, ularning brend qiymatini oshiradi hamda O'zbekistonning eksport salohiyatini yanada mustahkamlaydi (1-rasm).



1-rasm. O'zbekistonda to'qimachilik sanoati mahsulotlarini ishlab chiqarish (mlrd so'mda)


2015–2023-yillar davomida mamlakat sanoatida kuzatilgan o'sish dinamikasi, ayniqsa to'qimachilik va kiyim-kechak ishlab chiqarish tarmoqlarida, milliy iqtisodiyotning diversifikatsiyasi va yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar yaratish jarayonida muhim omil sifatida namoyon bo'ldi.

Umumiy sanoat mahsulotlari hajmi 2015-yilda 2,86 trln so'mdan 2022-yilda 18,24 trln so'mgacha o'sib, to'qqiz yil ichida qariyb yetti barobar oshgan. Bu holat O'zbekiston sanoatining strategik rivojlanish yo'nalishlari izchil amalga oshirilayotganini hamda tarmoqda texnologik modernizatsiya va ishlab chiqarish samaradorligi yuksalayotganini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, 2023-yilda ishlab chiqarish hajmining 4,42 trln so'mga qisqarishi asosan tashqi iqtisodiy omillar, global bozorlardagi beqarorlik va logistik zanjirlardagi vaqtinchalik uzilishlar bilan izohlanadi. Biroq bu holat uzoq muddatli rivojlanish tendensiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatmagan, balki ichki ishlab chiqarish zaxiralarini qayta ko'rib chiqish va eksport tarkibini optimallashtirish zaruratini yuzaga keltirgan.

Mazkur davrda to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2015-yildagi 578,6 mlrd so'mdan 2022-yilda 5,1 trln so'mgacha o'sib, tarmoqni mamlakat sanoatining eng tez rivojlanayotgan yo'nalishlaridan biriga aylantirdi. Kiyim-kechak ishlab chiqarish ko'rsatkichlari ham barqaror o'sishni namoyon etdi: 2015-yilda 310,5 mlrd so'm bo'lgan hajm 2022-yilga kelib 1,72 trln so'mga yetgan. Ushbu o'sish mahalliy brendlarning ichki bozordagi raqobatbardoshligini kuchaytirganini va milliy moda industriyasi shakllanayotganini tasdiqlaydi.

2023-yilda to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining 1,15 trln so'mga, kiyim-kechak ishlab chiqarishning esa 426 mlrd so'mga qisqarishi global talabning pasayishi va ayrim tashqi bozorlardagi beqarorlik bilan bog'liq. Shunga qaramay, ishlab chiqarish korxonalarini tomonidan ichki bozorni qo'llab-quvvatlash, eksportni geografik diversifikatsiya qilish va raqamli texnologiyalarni keng joriy etish orqali bu qisqa muddatli pasayishning salbiy ta'siri minimallashtirilmoqda (2-rasm).



2-rasm. Sanoatning asosiy ko'rsatkichlari

Grafik ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, 2000–2022-yillar oralig'ida mamlakatda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi izchil o'sish sur'atlarini namoyon etgan. Ayniqsa 2016-yildan keyingi davrda o'sish jadal tus olib, sanoat tarmoqlarida tarkibiy yangilanishlar va investitsion faollik sezilarli darajada kuchaydi. 2022-yilda sanoat mahsuloti hajmi 18 trln so'mdan ortiq natijaga erishib, tarixiy rekord qayd etildi.

2023-yilda kuzatilgan qisqa muddatli pasayish esa jahon bozorida noaniqliklar, tashqi savdo aloqalaridagi cheklovlar hamda logistik zanjirlardagi vaqtinchalik uzilishlar ta'siri bilan izohlanadi. Biroq bu holat sanoatning uzoq muddatli barqaror rivojlanish tendensiyasiga ta'sir ko'rsatmagan, balki ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish, eksport bozorlarini diversifikatsiya qilish va ichki resurslardan samarali foydalanish zaruratini yuzaga keltirgan.

Shu davrda to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati mamlakat sanoatining eng istiqbolli tarmoqlaridan biriga aylandi. Mazkur tarmoq mahalliy moda brendlari uchun keng imkoniyatlar yaratib, xomashyodan tayyor mahsulotgacha bo'lgan to'liq qiymat zanjirini shakllantirdi. Iqtisodiy jihatdan, sanoat hajmining o'sishi qo'shilgan qiymat darajasini oshirdi, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirdi va qayta ishlash zanjirlarini kengaytirdi. Natijada ichki bozorni importdan qisman ozod etish hamda eksport salohiyatini oshirish imkoniyati paydo bo'ldi.

Mahalliy moda brendlari uchun bu jarayon ichki bozorda raqobatbardosh ustunlikni ta'minlab, sifat va dizayn jihatidan xalqaro talablar bilan uyg'unlashgan mahsulotlar ishlab chiqarishga zamin yaratdi. 2016–2022-yillarda sanoat hajmining tez o'sishi milliy brendlarning tashqi bozorga chiqish imkoniyatlarini ham kengaytirdi, chunki ishlab chiqarish hajmlarining ko'payishi sifat standartlarining xalqaro mezonlarga yaqinlashuvini ta'minladi.

Marketing nuqtayi nazaridan, sanoatdagi o'sish mahalliy brendlarning iste'molchilar kiyinish imidjiga ta'sirini kuchaytiruvchi muhim omil sifatida namoyon bo'ldi. Birinchidan, ishlab chiqarish hajmining ortishi turli iste'molchi segmentlari uchun mahsulot diversifikatsiyasini ta'minladi: ommaviy segment uchun qulay va arzon mahsulotlar, premium segment uchun esa eksklyuziv dizaynli va yuqori sifatli liboslar taklif etish imkoniyati paydo bo'ldi.


Ikkinchidan, marketing strategiyalarida milliy an'analar va zamonaviy modaning uyg'unlashtirilishi orqali mahalliy brendlar iste'molchilarning kiyinish madaniyati va milliy imidjiga sezilarli ta'sir o'tkazishga muvaffaq bo'ldi. Milliy naqshlardan, ekologik toza matolardan va mahalliy dizayn yechimlaridan foydalanish orqali "Made in Uzbekistan" tamg'asi iste'molchilar ongida sifat, milliy iftixor va ishonchlilik bilan bog'lanib bormoqda.

2023-yilda qayd etilgan pasayish esa marketing strategiyalarini yanada diversifikatsiya qilish, eksport geografiasini kengaytirish va tashqi bozorlarda barqarorlikni ta'minlash zarurligini ko'rsatadi. Bunday sharoitda



mahalliy brendlar raqamli marketing kanallari, elektron tijorat platformalari va xalqaro moda ko'rgazmalarida faol ishtirok etish orqali o'z mavqeini yanada mustahkamlashi mumkin.

Bundan tashqari, ichki bozorda narx siyosatini optimallashtirish, sifat kafolatini ta'minlash, va milliy brend qiymatini oshirishga yo'naltirilgan kommunikatsiya strategiyalarini kuchaytirish istiqboldagi muvaffaqiyat omillari sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Shu tarzda, O'zbekiston sanoati, xususan to'qimachilik va moda sektori, raqamli transformatsiya, innovatsiyalar va marketing strategiyalarining uyg'unlashuvi orqali barqaror o'sish modeliga o'tmoqda (3-rasm).



3-rasm. O'zbekiston Respublikasida kiyim ishlab chiqarish

2010–2022-yillar davomida mamlakat sanoatida, ayniqsa ishlab chiqarish tarmoqlarida izchil o'sish tendensiyasi kuzatilib, shu jarayonda kiyim ishlab chiqarish sohasi ham iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi sifatida shakllandi. Jadval va grafik ma'lumotlariga ko'ra, umumiy sanoat mahsuloti hajmi 2010-yilda 38,1 trln so'mdan 2022-yilda 553,2 trln so'mgacha o'sib, qariyb o'n to'rt barobar oshgan. Shu bilan birga, ishlab chiqarish sanoati hajmi 2010-yildagi 28,7 trln so'mdan 2022-yilda 460,4 trln so'mgacha ko'tarilib, mamlakat iqtisodiyotida ishlab chiqarish tarmoqlarining yetakchi o'rin egallayotganini yaqqol namoyon etgan.

Ushbu umumiy o'sish fonida kiyim ishlab chiqarish sohasida ham sezilarli o'sish kuzatildi. 2010-yilda 575,8 mlrd so'm bo'lgan ishlab chiqarish hajmi 2022-yilga kelib 17,2 trln so'mga yetgan, ya'ni qariyb 30 barobar o'sish qayd etilgan. Bu natija kiyim-kechak sanoatining milliy iqtisodiyotdagi roli tobora ortib borayotganini, shuningdek, ushbu tarmoqning yuqori qo'shilgan qiymat yaratish imkoniyatiga ega ekanini ko'rsatadi.

Kiyim ishlab chiqarishning umumiy sanoatdagi ulushi 2010-yilda 1,5 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2016-yildan boshlab 3–4 foiz oralig'ida shakllanib, 2022-yilda 3,1 foizga yetgan. Ishlab chiqarish sanoati tarkibidagi ulushi esa 2010-yilda 2 foiz bo'lgan bo'lsa, 2016–2022-yillar oralig'ida 3,5–5 foiz atrofida barqarorlashgan. Ushbu ko'rsatkichlar kiyim-kechak sanoatining barqaror o'sish potentsialiga ega strategik yo'nalish ekanini va umumiy sanoatning innovatsion tarkibiy qismi sifatida shakllanayotganini tasdiqlaydi.

Marketing nuqtayi nazaridan, kiyim ishlab chiqarish hajmining ortishi mahalliy brendlar uchun ichki va tashqi bozorlarda imidjini kuchaytirish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Ichki bozorda brendlar zamonaviy marketing strategiyalarini joriy etish orqali iste'molchilarning kiyinish imidjiga ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Masalan, yosh iste'molchilar uchun innovatsion dizaynlar, organik va ekologik toza matolardan tayyorlangan mahsulotlar orqali "green fashion" konsepsiyasini rivojlantirish, katta yoshdagi iste'molchilar uchun esa milliy naqsh va an'anaviy uslublarni uyg'unlashtirgan "cultural branding" yondashuvini qo'llash marketing samaradorligini oshiradi.

Bundan tashqari, raqamli marketing vositalari va elektron tijorat platformalaridan foydalanish mahalliy brendlarga nafaqat ichki bozorda o'z mavqeini mustahkamlash, balki xalqaro moda industriyasida ham faol ishtirok etish imkonini bermoqda. Shu tariqa, O'zbekiston kiyim ishlab chiqarish sohasi innovatsion yondashuvlar, brend strategiyalari va raqamli marketing mexanizmlarining uyg'unligi asosida barqaror o'sish bosqichiga kirib bormoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, 2010–2022-yillar davomida kiyim ishlab chiqarish hajmining qariyb 30 barobar o'sishi va uning sanoatdagi ulushining barqaror ortib borishi O'zbekistonning milliy moda industriyasi uchun yangi istiqbollar va imkoniyatlar yaratdi. Ushbu o'sish nafaqat ishlab chiqarish quvvatlarining kengayganini, balki mahalliy brendlarning ichki va tashqi bozorlarda mustahkam o'rin egallash salohiyatini ham namoyon etdi.

Mazkur imkoniyatlardan samarali foydalanish uchun marketing strategiyalarini milliy dizayn, ekologik toza ishlab chiqarish va raqamli kommunikatsiya vositalari asosida shakllantirish muhimdir. Shu yo'l bilan mahalliy brendlar iste'molchilarning kiyinish imidjiga ijobiy ta'sir o'tkazishi, ularning milliy brendlarga nisbatan ishonchini mustahkamlashi hamda "Made in Uzbekistan" tamg'asi bilan xalqaro bozorda o'z brend qiyofasini shakllantirishi mumkin.

O'zbekistonning to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati bozorida rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilish, iste'molchilarning kiyinish imidjiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash va ularni marketing strategiyalari bilan uyg'unlashtirish bugungi kunda alohida ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Brendlar reytingi tahlilidan ko'rinib turibdiki, mahalliy bozorda faoliyat yuritayotgan korxonalar turli iste'molchi segmentlariga yo'naltirilgan strategiyalarni qo'llamoqda: masalan, "Pandora" va "Indenim" kabi yirik brendlar kiyim-kechak va aksessuarlar bozorida yetakchi o'rinni egallagan bo'lsa, "Bellstore", "Express Beauty" va "Incosemetic Asia" kabi brendlar kosmetika va go'zallik sohasida faoliyat yuritmoqda. Bu holat milliy moda bozorining diversifikatsiyasi natijasida iste'molchilarning turli ehtiyojlarini qondirish imkoniyati kengayganini anglatadi.

Shuningdek, "Indenim" va "Aynimo" brendlari milliy jinsi va zamonaviy kiyim-kechak ishlab chiqarishni yo'lga qo'yib, milliy brendlarning zamonaviy, xalqaro standartlarga mos imijini shakllantirishda muhim rol o'ynamoqda. Bunday yondashuvlar to'qimachilik sanoatida qayta ishlash darajasining oshishiga, dizayn innovatsiyalarining kengayishiga va brend kapitalining kuchayishiga zamin yaratmoqda.

Mahalliy brendlar raqobatbardoshlikni oshirish uchun iste'molchilarning imidjiy ehtiyojlariga yo'naltirilgan strategiyalarni faol qo'llamoqda. Ular o'z faoliyatida raqamli marketing kanallarini rivojlantirish, ijtimoiy tarmoqlarda milliy uslubni global trendlar bilan uyg'unlashtirish, hamda xalqaro moda ko'rgazmalarida ishtirok etish orqali bozor pozitsiyasini mustahkamlab bormoqda.

Masalan, "Fratelli Casa" va "Cotton Button" ichki kiyim ishlab chiqarish yo'nalishida funktsionallik va estetika uyg'unligini ta'minlayotgan bo'lsa, "Black Quail" brendi milliy teridan tayyorlangan premium aksessuarlari bilan yuqori segmentda o'z o'rnini mustahkamlab bormoqda.

Bundan tashqari, "Express Beauty", "Hairboss" va "Oriflame" kabi brendlar iste'molchilarning shaxsiy imidjini shakllantirishda qo'shimcha qiymat yaratib, moda industriyasi bilan uzviy sinergiya hosil qilmoqda. Bunday hamkorlik orqali iste'molchilar nafaqat kiyim-kechak, balki umumiy estetik obrazni to'liq mukammallashtirish imkoniyatiga ega bo'lishmoqda.

Qayd etilgan brendlar O'zbekistonning to'qimachilik va moda sanoatida mahalliy brend nufuzini oshirish, iste'molchilarning kiyinish madaniyatiga ta'sir o'tkazish, hamda mamlakatning imidjiy salohiyatini yuksaltirishda strategik ahamiyat kasb etmoqda. Shu jarayonda marketing strategiyalarining samaradorligi — ya'ni milliy dizaynni xalqaro trendlar bilan uyg'unlashtirish, raqamli kommunikatsiyani kuchaytirish, va iste'molchi uchun emotsional qiymat yaratish — asosiy drayver sifatida namoyon bo'lmoqda.

Natijada, "Made in Uzbekistan" brendi nafaqat ichki bozorda, balki xalqaro maydonda ham muvaffaqiyatli pozitsiyani egallash imkoniyatiga ega bo'lib bormoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. [Vogue Business]. *Inside H&M's London Fashion Week takeover*. — 2023. — <https://www.voguebusiness.com/story/fashion/inside-handms-london-fashion-week-takeover>
2. Keller, K. L., & Kotler, P. (2022). *Branding in B2B firms*. In *Handbook of Business-to-Business Marketing* (pp. 205–224). Edward Elgar Publishing.
3. Blasi, S., Brigato, L., & Sedita, S. R. (2020). *Eco-friendliness and fashion perceptual attributes of fashion brands: An analysis of consumers' perceptions based on Twitter data mining*. *Journal of Cleaner Production*, 244, 118701. <https://doi.org/10.1016/j.jclepro.2020.118701>
4. Антошкин, С. И. (2017). *Управление брендом инновационной продукции*. Диссертация на соискание учёной степени к.э.н. Специальность 08.00.05 — экономика и управление народным хозяйством (маркетинг, управление инновациями). Санкт-Петербург.
5. Anggraeni, A., & R. (2015). *Effects of Brand Love, Personality and Image on Word of Mouth: The Case of Local Fashion Brands Among Young Consumers*. *Procedia – Social and Behavioral Sciences*, 211, 442–447. <https://doi.org/10.1016/j.sbspro.2015.11.058>
6. Johnstone, L., & Lindh, C. (2022). *Sustainably sustaining (online) fashion consumption: Using influencers to promote sustainable (un)planned behaviour in Europe's millennials*. *Journal of Retailing and Consumer Services*. <https://doi.org/10.1016/j.jretconser.2021.102775>



7. Kim, Y., & Sullivan, P. (2019). *Emotional branding speaks to consumers' heart: The case of fashion brands*. *Fashion and Textiles*, 6, 1–16. <https://doi.org/10.1186/s40691-018-0164-y>
8. Ray, S., & Nayak, L. (2023). *Marketing Sustainable Fashion: Trends and Future Directions*. *Sustainability*. <https://doi.org/10.3390/su15076202>
9. Şener, T., Bişkin, F., & Kilinc, N. (2019). *Sustainable dressing: Consumers' value perceptions towards slow fashion*. *Business Strategy and the Environment*. <https://doi.org/10.1002/bse.2330>
10. Jung, J., Kim, S., & Kim, K. (2020). *Sustainable marketing activities of traditional fashion market and brand loyalty*. *Journal of Business Research*. <https://doi.org/10.1016/j.jbusres.2020.04.019>
11. Chetioui, Y., Benlafqih, H., & Lebdaoui, H. (2020). *How fashion influencers contribute to consumers' purchase intention*. *Journal of Fashion Marketing and Management*, 24, 361–380. <https://doi.org/10.1108/jfmm-08-2019-0157>
12. Tsabitah, N., & Anggraeni, R. (2021). *The Effect of Brand Image, Brand Personality and Brand Awareness on Purchase Intention of Local Fashion Brand "This Is April"*. *Kinerja*, 25(2). <https://doi.org/10.24002/kinerja.v25i2.4701>
13. Nyadzayo, M., Johnson, L., & Rossi, M. (2020). *Drivers and outcomes of brand engagement in self-concept for luxury fashion brands*. *Journal of Fashion Marketing and Management*, 24, 589–609. <https://doi.org/10.1108/jfmm-05-2018-0070>

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100